

**Qarshi davlat universiteti dotsenti,  
PhD Avaznazarov Odiljon  
Rahmatulloyevich taqrizi ostida**

**Temirova Kamola Bakhtiyor kizi**  
PhD student at Termez State University  
Email:[kamolatemirova28@gmail.ru](mailto:kamolatemirova28@gmail.ru)  
ORCID: 0009-0005-0509-8873

## **GASTRONOMIK BIRLIKLARDA ANTONIMLIK HODISASI**

**ANNOTATSITA:** Ushbu maqolada antonimlar, ularning leksikologiyagi o‘rniga haqida ma’lumotlar berilgan. Shuningdek, gastronomik birliklar, ular o‘rtasida antonimlik hodisasingin kuzatilishi va birliklarning lug‘atlarda ifodalanishi misollar vositasida to‘ldirilgan.

**KALIT SO‘ZLAR:** antonimlar, gastronomik birliklar, sifat turkumi, degustatsion birliklar, maza-ta’mni ifodalovchi so‘zlar, achchiq-shirin, badxo‘r-xushxo‘r, suyuq-quyuq va hokazo.

**KIRISH.** Antonimlar [anti.. + yun.onyma – nom] tlsh. Qarama-qarshi, zid ma’noli til (nutq birliklari). Mas., oq-qora, qattiq-yumshoq, achchiq-shirin antonim so‘zlar hisoblanadi. [1.120].

Lingistik nuqtayi nazardan antonimlar kontekstda muttazam ravishda takrorlanadigan qarama-qarshiliklar bilan ajralib turadi, shuning uchun antonimlarni o‘rganish ko‘plab so‘zlarning ma’nosini yanada samarali eslab qolish imkonini beradi: antonimik kontrast asosida ularning kombinatsion imkoniyatlarini tuzatish sohasidagi ko‘nikma va malakalarini kuchli o‘zlashtirish va mustahkamlash sodir bo‘ladi. Fanda antonimiya hodisasi omonimiya, sinonimiya, ko‘p ma’nolilik va enantiosemiyaga yondosh hodisa sifatida o‘rganiladi [2.240].

### **MATERIALLAR VA USLUBLAR.**

Ishimiz bevosita lug‘atshunoslik bilan bog‘liq bo‘lganligi, asosiy mavzumiz gastronomik birliklarni tadqiq etishga qaratilganligi uchun, bevosita leksik-semantik birliklar orasida yuzaga keluvchi gastronomik birliklar orasida antonimlik holati mavjud yoki mavjud emasligini bilish maqsadida Sh. Rahmatullayevning “O‘zbek tili antonimlarining izohli lug‘ati” ga murojaat qilindi [3].

Bu lug‘at hozirgi o‘zbek tilidagi antonimlarning dastlabki lug‘ati bo‘lib, unda 495 antonimik guruhga birlashuvchi 1800 ga yaqin antonimik juftlik tasvirlangan. Antonimik munosabat leksik ma’nolar ora belgilanib, antonimlarning ma’nosini ta’riflangan va misollar keltirilgan. Ayni vaqtida har bir antonim ostida, agar mavjud bo‘lsa, sinonimi ham keltirilgan. Lug‘atning kirish qismida antonimlarning tabiatи, turlari, o‘xhash til hodisalaridan farqlari haqida qisqacha ma’lumot berilgan.

Antonimlarni belgilashda asosiy o‘lchov - leksik ma’no, ya’ni so‘zlarning zid ma’nolarini bildirishi. Shu bilan birga, so‘zlarning antonim ekanini belgilashda mantiqiy markaz prinsipidan ham o‘rinli foydalanish lozim. Antonimik qutblarning o‘rtasi deb faraz qilingan nuqta yoki ikki antonim so‘z bildirgan tushunchalar o‘rtasidagi oraliq tushuncha mantiqiy markaz deyiladi. Masalan, bahoni anglatuvchi yaxshi (4) va yomon (2) so‘zlariga nisbatan qoniqarli (3) so‘zi, kecha va kunduz so‘zlariga nisbatan tong va shom so‘zları, balandlik va pastlik so‘zlariga nisbatan tekislik so‘zi mantiqiy markaz hisoblanadi. Mantiqiy markaz bo‘lib keladigan so‘z odatda neytral, normal holatni bildiradi. Ovqatning tuz-namagi joyida bo‘lsa, normal hisoblanadi. Tuz miqdori normal holatdan oz bo‘lsa yoki butunlay bo‘lmasa, tuzsiz, ortiq yoki juda ko‘p

bo‘lsa, sho‘r deyiladi. Ana shunday normal holatning ikki qarama-qarshi qutbini bildiruvchi tuzsiz va sho‘r so‘zлari antonim bo‘ladi [3.11].

## **NATIJALAR VA MUHOKAMALAR.**

Sh. Rahmatullayevning “O‘zbek tili antonimlarining izohli lug‘ati” dagi lug‘at birliklari, lug‘at maqolalari o‘rganib chiqilganda, gastronomik birliklar orasidagi antonimlik hodisasi faqat ayrim sifat turkumiga mavjud degustatsion birliklarda, maza-ta’mni ifodalovchi so‘zliklarda uchrashining guvohi bo‘lindi. Masalan, achchiq-shirin, badxo‘r-xushxo‘r (xushta’m), bemaza (belazzat) – mazali (lazzatli), bemaza – totli, tuzsiz-sho‘r va hokazo.

Ta’mi qalampirnikiga o‘xshagan - **achchiq** leksemasi orqali (achchiq anor) va ta’mi shakarnikiga o‘xshagan, chuchuk – **shirin** leksemasi orqali (shirin anor) ifodalangan. M, Achchiq bilan chuchukni totgan bilar, uzoq bilan yaqinni yurgan bilar. “Otalar so‘zi”. Boyvachcha hozircha kabob, konyak, shirin vino buyurdi, kechga palov tayyorlashni iltimos qildi. Oybek, Qutlug‘ qon. Achchiq-shirin leksemalarining ikkinchi ma’nolari quyidagicha: Achchiq – kishining izzat-nafsiga tegadigan, xafa qiladigan; shirin – kishiga rohat bag‘ishlaydigan ma’nolarida ham keladi [3.33].

Antonimik birliklar orasida o‘zaro sinonimik hodisa ham mavjudligi misollarda ayon bo‘ldi. Ta’mi yomon, o‘ta bemaza narsalarga nisbatan **badxo‘r** leksemasi (badxo‘r ichimlik), ta’mi yaxshi, ishtaha bilan yeb-ichiladigan narsalarga nisbatan esa **xushxo‘r va xushta’m** leksemalari qo‘llaniladi. Xushta’m ichimlik. Misol, Bularning hammasi qo‘silib [ovqat] badxo‘r bo‘lib ketmasin deb qo‘rqaman. U.Ismoilov, Rustam. Bay-bay, biram xushxo‘r taom bo‘pti-da! “Mushtum” [3.37].

**Bemaza, belazzat** – ta’m-mazasi yoqimsiz, salbiy ta’sir beradigan so‘zлari (Bemaza ovqat, belazzat bo‘tqa, bemaza sharbat) mazali so‘ziga o‘zaro sinonimik qatorni yuzaga keltiruvchi lazzatli, laziz, totli so‘zлari bilan antonimlik hosil qilib, ta’m-mazasi yoqimli, ijobiy ta’sir beradigan ma’nolarni ifodalaydi. M, Mazali//lazzatli ovqat; laziz//totli shovla; mazali// totli sharbat.

Eng bemaza, eng arzon sho‘rva-shultini qaynatish uchun igna bilan quduq qazish kerak bo‘lar ekan. Oybek, Qutlug‘ qon. Narxi qimmat, o‘zi belazzat ovqat qaysi oshxonalarda topiladi. “Mushtum” [3.46].

**Suyuq-quyuq** antonimlikni ifodalaydigan juftliklar taomlarga nisbatan ham ishlatiladi. Masalan, tarkibida suvi ko‘p, boshqa narsasi oz bo‘lgan ovqatlarga nisbatan suyuq leksemasi (Suyuq mastava) va tarkibida suvi oz, boshqa nasrsasi ko‘p bo‘lgan nasralarga, jumladan taomlarga nisbatan quyuq leksemasi qo‘llaniladi. (quyuq masatava). M: Quyuq yoki suyuq, yog‘lik yoki yovg‘on, qatiqli yoki qatiqsiz, ishqilib, har qaysi oila o‘zi topgan-tutganini dasturxonga qo‘yib, baham ko‘radigan muqaddas payt. S.Anorboyev, Oqsoy.

Suyuq va quyuq so‘zlarining qo‘sishma ma’nolari ham mavjud, ya’ni suyuq – Rang beruvchi modda miqdori me’yordan kam bo‘lgan, rangi och. Suyuq siyoh; Quyuq – Rang beruvchi modda miqdori me’yordan ko‘p bo‘lgan, rangi to‘q. Quyuq siyoh [3.63].

Tuzi normadan yoki umuman yo‘q oziq-ovqat mahsulotlariga nisbatan tuzsiz leksemasi (tuzsiz mastava), aksincha tuzi normadan ko‘p, ortiqni ifodalaydigan birliklarga sho‘r leksemasi qo‘llaniladi). Sho‘r mastava. Masalan, “Choying suyuq, oshing tuzsiz”, - deb, Ochaxonning ko‘zini ochirmay qo‘ydym. “Mushtum”. Qiymang buncha sho‘r bo‘lmasa?! So‘zlashuvdan [3.174].

## **XULOSA.**

Xulosa o‘rnida shun aytishimiz mumkinki, gastronomik birliklar orasida yuzaga keluvchi antonimlik hodisasi deyarli taom nomlarida uchramasligi, gastronomik birliklar qatorida sifat turkumiga mansub ayrim degustatsion birliklarda uchrashining guvohi bo‘lindi. Ushbu birliklar ideografik lug‘atlar yaratilishiga asos bo‘la oladi.

## **ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. VI jildli. I jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyoti, 2022.
2. Maxmaraimova Sh. Hozirgi o‘zbek tili. (leksikologiya). O‘quv qo‘llanma. – T.: “Firdavs-Shoh nashriyoti”, 2021. – 380 bet.
3. Ўзбек тили антонимларининг изоҳли луғати. Ш.Раҳматуллаев, Н.Маматов, Р.Шукуров. Тошкент. “Ўқитувчи”. – 1980.